

O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT IQTISODIYOTI (KOREYA IQTISODIYOTI) FANI TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ikramova Mehribon Abdushukurovna

ToshDShU Koreyashunoslik fakulteti o'qituvchisi

Telefon:+(99899)9846252

ikramovamehribonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari va Oliy ta'lim tizimida o'rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fanini modulli o'qitish tizimini qo'llash haqida atroflicha yoritilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar: ta'lim, modulli ta'lim, sifatli ta'lim, fan vazifalari.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning sur'atlari jadallashib, jamiyat hayotining barcha sohalarida yangilanish va zamon talablaridan kelib chiqib sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Bu oliy ta'lim tizimi va o'quv jarayonida ham kuzatilmoqda. Xususan, Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish tizimi takomillashtirishga, ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga, ta'lim sifatini oshirishga yuqori darajada e'tibor qaratilgan holda, o'quv adabiyotlari, ta'lim dasturlarini yangi avlodini yaratish, bu jarayonda zamonaviy xorijiy o'quv adabiyotlaridan foydalanish, oliy ta'limning yangi malaka talablaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash, xorijiy tajribalardan foydalanish shular jumlasidandir.

Murojatnomada ham Prezidentimiz ta'lim-tarbiya ishiga to'xtalib, sohadagi mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan istiqbolli loyihalar xususida so'z yuritdilar: "E'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot —

bilimda, chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu soʻzlari keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, ta’lim sifati hamda jamiyatda o’qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo’ladi”¹.

2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deya nom berilishining o’ziyoq mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, bu orqali islohotlarni samarali amalga oshirishga tayanch bo’la oladigan kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilishiga asos bo’lmoqda.

Mamlakatimizda mavjud moddiy, iqtisodiy, intellektual resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasining pasayib ketishining oldini olish va muttasil oshirib borish, barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlar ko’rilmoqda, tegishli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyas”da to’rtinchi ustuvor yo’nalish - adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda muhim vazifalardan biri sifatida 2026-yilga qadar o’quv dasturlari va darsliklarni ilg’or xorijiy tajriba asosida to’la qayta ko’rib chiqib, amalda joriy yetish, 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, “El-yurt umidi” jamg’armasi orqali yerkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygozlarga o’qishga yuborish ko’lamini 2 baravarga oshirish va ta’lim sifati yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutilgan².

Ushbu fikrlarga asoslangan holda aytish o’rinliki, talabalarga ta’lim va tarbiya

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi PF-60-son Farmoni.// <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844198>
WWW.HUMOSCIENCE.COM

berish jarayonida ham yangicha yondashuvlar ishlab chiqish, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim bo'yicha dars berish, mavjud dars berish texnologiyalarining tarkibini va mazmunini takomillashtirib borish hamda bu borada xizmat qiluvchi pedagog kadrlarning malakasini uzluksiz ravishda oshirib borish davr talabiga aylanmoqda.

So'nngi yillarda O'zbekistonda Sharq mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash, jahonda ro'y berayotgan jarayonlarni to'g'ri talqin qila oladigan tahliliy tafakkurga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, sharq tillari bo'yicha sinxron tarjimonlarni yetishtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Sharqshunoslik Universitetida sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy-pedagogik salohiyatni rivojlantirish, ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va axborot ta'minotini yaxshilash, moddiy-texnik bazani zamon talablariga mos ravishda yangilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-aprelda "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4680-sonli qarori qabul qilindi³.

Xo'jalik jamiyatining barcha jabhalarida integratsiya va globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi asosiy rivojlanish tendensiya va yo'nalishlarini aniqlab olishda, hamda iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda "O'rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti)" fanining roli alohida ahamiyatga egadir.

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 апрелдаги "Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4680-сон қарори.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida, xususan, raqamli iqtisodiyotni asosiy sohaga aylantirishda, iqtisodiyotni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlashda, iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirishda, mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash borasida o'rganilayotgan mintaq (mamlakat) mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil qilish orqali ulardan samarali foydalanish imkoniyatlariga taklif va tavsiyalar berishda, hamda talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, iqtisodiy madaniyatini oshirishda mazkur fanning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan, ya'ni "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o'sish suratlarini taminlash" yo'nalishida "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taminlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish", "Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib boorish", "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish" kabi maqsadlarni amalga oshirish zarurligi belgilab qo'yilgan⁴.

Shuningdek, ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining murojaatnomalarida, "har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Oliygoth rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak. Kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm ajratiladi. Bu yil ilm-fan va

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi pf-60-son farmoni.

innovatsiyalarga 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bu – 2017 yilga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p, degani. Olimlarning ish haqi ham 4,5 barobar oshirildi. Bularning barchasi hisobidan nano va biotexnologiyalar, raqamli geologiya kabi 18 ta yangi ilmiy yo‘nalish tashkil etildi. Kelgusi yili ilm-fan va innovatsiyalarga 1,8 trillion so‘m ajratiladi⁵ ekanligini ham ta’kidlab o‘tganlar.

Bugungi kunda Sharqshunoslik universitetida oliy iqtisodiy ta’limni yanada rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar asosini tashkil etuvchi “O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fani” fanini o‘qitishning o‘quv-uslubiy asoslarini yanada takomillashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, “O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti)” fanini modulli o‘qitish tizimi joriy qilindi. Bu ta’lim texnologiyasi, o‘qituvchidan talab qilinadigan puxta ilmiy-nazariy bilimga ega bo‘lish va pedagogik-tarbiyaviy malakani kuchaytirib borish mas’uliyatini yuklaydi, talabalarga mavzularning asosiy materiallarini qisqa va tushunarli tilda etkazib berishga, bilim, ma’lumot va axborotlarni qiyoslash, guruhlash, ta’riflash, hamda talabalar bilan muloqotda, o‘qitishda interfaol usullardan samarali foydalanish orqali talabalarning iqtisodiy idrok va tafakkur jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga “O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti)” fani predmetini chuqur o‘rganish, bozor iqtisodiyotining nazariy asoslari, qonuniyatlaridan xabardor bo‘lish, nazariy yondoshuvlarning amaliy jihatlarini ilg‘ab olish, iqtisodiy jarayonlarning global va lokal masalalarini tushunish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va ushbu fanni o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatadi. O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fanining maqsadi talabalarda Janubiy Koreya iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari, mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni hamda ularning bugungi kundagi iqtisodiy ahvoli va

5 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22.12.2022.
<https://president.uz/uz/lists/view/5774>

holatini tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek O'zbekistonning Janubiy Koreya bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni baholash bilimlarini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, fanning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlaridan kelib chiqib hamda fanning maqsadiga erishishni ta'minlash uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- fanning mohiyati, mazmuni va ahamiyatini o'rganish;
- o'rganilayotgan mamlakatning xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarini o'rganish;
- o'rganilayotgan mamlakatning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy integratsion aloqalarini va muammolarini o'rganish;
- o'rganilayotgan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiladigan global muammolarni o'rganish;
- yuqoridagi muammolarni qiyosiy tahlildan va iqtisodiy tahlilning boshqa shakllaridan foydalanish orqali o'rganish;
- fanda o'rganiladigan muammolar yuzasidan bahs-munozaralarni olib borish, shuningdek ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yechimini topish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalar o'z fikrlarini yozma shaklda aniq va mazmunli bayon qilishga o'rganishlari uchun ularda esse yozish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- iqtisodiy samaradorlikni hisoblash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'rganilayotgan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotining asosiy sabablari, tabiiy resurslari, tashqi iqtisodiy faoliyati, uning qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi va munosabatlari, hozirgi iqtisodiy holati va jahon xo'jaligidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- jamoaviy ishlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Demak, yuqorida sanab o'tilgan fanning vazifalari o'rganilayotgan mamlakatning iqtisodiyotini keng ko'lamda yoritib berishga asos bo'la oladi .

Shuningdek bu fan fani quyidagi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'qitiladi:

—Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari, —Iqisodchilar uchun matematika, —Iqtisodiyot nazariyasi, —Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, Jahon iqtisodiyoti, O‘zbekiston iqtisodiyoti, Makro va mikro iqtisodiyot va boshqalar. Talabalar — O‘rganilayotgan mintaq (mamlakat) iqtisodiyoti fanini o‘zlashtirish barobarida ushbu fanlarni ham puxta o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi. Chunki, ushbu fanlar — O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fanini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun ko‘maklashadigan bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Shuni alohida takidlash lozimki, Globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, «O‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti (Koreya iqtisodiyoti) fani mamlakat iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlashda, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida mamlakatning jahon xo‘jaligiga samarali integratsiyalashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur fan doirasida o‘rganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti tarmoq tarkibi, sanoat tarmoqlarining xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va investitsiya faoliyatining muhim nazariy va amaliy jihatlari: ularning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, global va hududiy iqtisodiy integratsiyalashuv shakllari, rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ko‘rib chiqilgan.

“O‘rganilayotgan mintaq (mamlakat) iqtisodiyoti” fani juda qiziqarli fan bo‘lib, bugungi kunda ko‘pchilikni qiziqtirayotgan Janubiy Koreya iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab savollarga yechim topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”

gi PF-60-son Farmoni.// <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844198>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 апрелдаги “Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4680-сон қарори.

4. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi pf-60-son farmoni.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси . 22.12.2022.
<https://president.uz/uz/lists/view/5774>